



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**20-Xalqaro yoshlar tabiiy fanlar olimpiadasida O‘zbekiston terma jamoasi  
ishtirok etishi bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4306-son va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 562-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

20-Xalqaro yoshlar tabiiy fanlar olimpiadasi (keyingi o‘rinlarda – xalqaro olimpiada) tashkiliy qo‘mitasining 2023-yil 6-sentabrdagi hisobvaraqa-fakturasi;

xalqaro olimpiada 2023-yil 1-10-dekabr kunlari Bangkok (Tailand) shahrida o‘tkazilishi;

xalqaro olimpiadada o‘quvchilar ishtirokini ta‘minlash bilan bog‘liq, shu jumladan sutkalik, yashash, transport va viza xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hisobidan qoplanishi inobatga olinsin.

2. Xalqaro olimpiadada ishtirok etadigan O‘zbekiston terma jamoasi tarkibi 2023-yilning oktabr oyida Toshkent shahridagi Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda o‘tkaziladigan saralash olimpiadasi natijalariga ko‘ra, xalqaro olimpiada tashkiliy qo‘mitasi tomonidan belgilangan kvota asosida shakllantirilsin.

3. Xalqaro olimpiadada ishtirok etish uchun davlatlardan olinadigan yillik badal to‘lovi (2023-yil uchun 1000 AQSH dollari) hamda O‘zbekiston terma jamoasi rahbarlarining xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlari (aviachipta, viza, tibbiy sug‘urta va boshqalar) Vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlar xarajatlari smetasida rejalashtirilgan mablag‘lar hisobidan qoplansin.

4. G‘oliblikni qo‘lga kiritgan barcha o‘quvchilar va ularning ustozlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o‘quvchilari o‘rtasida fan olimpiadalarini tashkil etish, o‘tkazish hamda xalqaro olimpiadalar ishtirokchilarini saralash va g‘oliblarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda belgilangan pul mukofotlari bilan rag‘batlantirilsin.

5. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) xalqaro olimpiadada O‘zbekiston terma jamoasining ishtirok etishi bilan bog‘liq to‘lovni Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan 2023-yilda o‘tkaziladigan markaziy tadbirlar rejasida nazarda tutilgan tegishli mablag‘lar doirasida amalga oshirilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**X.Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil “ 12 ”- sentabr,  
287 - son